

SO'ROQ GAPLARNING NUTQIY MULOQOTDAGI O'RNI

Salimova Gulnoza Anvar qizi

BuxDU, lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi

2-bosqich magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7336576>

Annotatsiya: Ushbu maqolada so'roq gaplarning mazmun qirralari, nutqiy muloqot bilan bog'liq xususiyatlari, lingvopragmatikaning nutqiy aktda shakllanishi, so'roq gaplarda kommunikativ intensiyaning o'rni haqida fikr yuritilib, misollar orqali yoritiladi.

Kalit so'zlar: Pragmatika, muloqot, lisoniy birlik, kommunikativ intensiya, nutqiy akt, pragmatik mazmun.

Tilning voqelanishida inson omili bilan bog'liq ravishdagi nutqiy muloqot jarayonini tadqiq qilish bugun zamonaviy tilshunoslikda aktual mavzulardan. Ma'lumki, muloqot jarayonida ishtirokchilar o'zaro munosabatlar tengligini ta'minlash uchun kommunikativ maqsadga mos keladigan harakatlar rejasini tuzadilar va ushbu rejani amalga oshirish imkonini beradigan lisoniy vositalarni tanlaydilar. Bunda kommunikativ maqsad ifodasi ikki yo'sinda kechishi ma'lum. Bularning biri intentsiyaning yashirin ifodasi bo'lsa, ikkinchisi fikrni ochiq izhor qilishdir. Muloqot jarayonida so'roq gaplardan foydalanayotgan so'zlovchi fikr maqsadi va mazmunidan kelib chiqib suhbat mazmuniga ta'sir ko'rsatadi. Nutqiy muloqot o'nlab milliy, etnografik, ijtimoiy, falsafiy-madaniy, axloqiy-estetik, tarixiy, maishiy va ruhiy omillarning lisoniy birliklar voqelanishi bilan qorishuvidan iborat dinamik sistema bo'lganligi uchun so'zlovchi mental faoliyati bilan bog'liq ravishdagi hodisalardan kelib chiqib muloqotga kirishadi. Nutqiy faoliyat unga yondosh va insonga xos ruhiy, fiziologik, ijtimoiy, ma'naviy, madaniy sistemalar bilan bog'liqlikda tadqiq etilgandagina nutqiy muloqotning mohiyati ochiladi va individual hodisa sifatidagi nutqqa obyektiv baho beriladi. Tilshunoslikda muloqot jarayonidagi nutq ishtirokchilari va nutqiy vaziyat tushunchasi bilan bog'liq bo'lgan hodisalarni lingvistik pragmatika tadqiq qiladi. J. Omonturdiyev, va A. Omonturdiyevlarning "So'z qo'llash san'ati" kitobida keltirilgan misolga diqqat qaratamiz: "Bo'rimi, tulkimi?", "Xotin olganmisiz?". Bu savollarga javob berish uchun tinglovchi ham o'z maqsadini ifoda etishda so'zlovchi ham olamda mavjud bo'lgan narsa, predmet, hodisalarning nomini bilishi hamda ma'lum grammatik qonun-qoidalar bilan tanish bo'lishining o'zi kifoya qilmaydi. Nutq ishtirokchilari bulardan tashqari nutqiy vaziyat tushunchasi mohiyatini ham bilishi kerakki, bu, albatta, so'zlovchi bayon qilmoqchi bo'lgan kommunikativ intensiyani to'g'ri ifodalanishida muhim amaliy qimmat kasb etadi.

“Bo’rimi, tulkimi?” so’rog’i hayot qiyinchiliklari va to’siqlariga uchragan, bajarilishi ma’lum shart-sharoitga asoslangan ishning bajaruvchisiga (ishning bajarilgan yoki bajarilmaganini aniqlash uchun) beriladi. Bu alternativ so’roqqa yo bo’ri, yoki tulki deb jazob beriladi. Bu gap so’rashning nozik, ma’johiy (evfemistik) formasi bo’lib, bo’ri- muvaffaqiyat, tulki-muvaffaqiyatsizlik timsolidir. Demak, javobda: «Bo’ri» deyishsa —omad, yaxshilik; «Tulki» deyishsa - omadsizlik, yomonlik anglashiladi.[45-46]

“Xotin olganmisiz?” so’rog’i navqiron yigitlardan, bo’yi yetgan qizlardan esa “Erga chiqqanmisan?”, “Er olganingiz yo’qmi?” shaklida so’raladi. (Surxondaryo, Qashqadaryo tomonlarda). [18-19] Bunday so’roqlarda dag’allik, qo’pollik yaqqol seziladi. Ba’zan madaniyatli kishilar nutqida ham bilib- bilmay og’ilmi, qizmi? so’zlari o’rniga erkakmi, urg’ochimi? shaklidagi so’roq muloqotda qo’pollikni yuzaga keltiradi. Til birliklarining nutqning u yoki bu ko’rinishi uchun uslubiy xoslanishi va qo’llanishi avvalo, nutqiy vaziyat va ijtimoiy-ruhiy holatlarni ifodalovchi kontekst bilan chambarchas bog’liq bo’ladi. So’zlovchi nutqiga xos kommunikativ niyatni aniq va to’g’ri ifodalashi uchun yana milliy urf-odatlar bilan bog’liq ijtimoiy qonun-qoidalarni bilishi ham talab qilinadi. Shu jihatlar to’liq qamrab olingandagina nutq ishtirokchilarining o’zaro muloqot jarayoni to’g’ri amalga oshiriladi. Lingvistik pragmatikaning xususiy masalalari nutq subyekt, nutq obyekti, nutq vaziyati bilan bog’liq ravishda yuzaga keladi. Tilimizda so’roq gaplar yordamida nutqiy muloqotning nafis did va go’zal ishtibohlar bilan oro berilgan shaklini hazrati Navoiyning quyidagi misralarida kuzatamiz: Xisravning ...Qaydinsen, ey, majnuni gumroh? deb bergan savolining o’ta mantiqsizligini Farhod: Majnun vatandin qayda ogoh? gapi bilan ya’ni savolga qarshi savol berish yo’li bilan isbotlaydi. Yoki “Kim ishq o’tidin befasona?” savoliga Farhod Xisravning ishq ahlidan yiroq kishi ekanligiga ishora tarzida “Kuymay kishi topmas nishona” shaklida, “Bu ishqning tarki yaxshiroqdur?” so’rov-taklifiga “Bu sheva oshiqdin yiroqdur” shaklidagi javobidan ko’rinib turibdiki, til kommunikatsiya jarayonida birgina aloqani ta’minlab qolmay, muloqot ishtirokchilarining dinamik xarakterdagi munosabatini ko’rsatuvchi vosita ham hisoblanadi.

Professor Sh.Safarov “Pragmatika - tilshunoslikning alohida sohasi bo’lib, unda muloqot jarayonida lisoniy birliklarni tanlab olish, ularni qo’llash hamda ushbu qo’llanishdagi birliklarning muloqot ishtirokchilariga ta’siri masalalari o’rganiladi”, - deb izohlaydi. Nutqiy faoliyatning yana bir jihati tinglovchiga ta’sir o’tkazish bo’lib, bunda har qanday muloqot harakati natijaviy (oxirgi) maqsadni ko’zlab bajariladi. “Dars qilmaysanmi?” so’rovida so’zlovchining nutqi tinglovchiga ta’sir o’tkazibgina qolmay, uni dars qilishga undaydi. Maqsad dars

qilish yoki qilmasligini soʻrash emas, dars qildirish! Bunda soʻzlovchi tinglovchining ongiga ,his –tuygʻulariga va xatti-harakatlariga taʼsir oʻtkazish maqsadiga erishadi. Soʻroq gaplarda soʻrash maqsadidan tashqari pragmatik mazmun ham ifodalanadi va prosessdagi nutqiy vaziyatlar, axborot olish va uzatish jarayonidagi subʼektiv holatlarni oʻrganadi.[5]

Nutqiy aktda soʻzlovchi bir paytning oʻzida ikki illokutiv harakatni amalga oshiradi. Bu borada J.Syorl va uning izdoshlari koʻlamdor tadqiqotlar olib borishgan. Masalan, “Tokchadagi kitobni menga olib berolmysizmi?”gapi talaffuz qilinganda, birlamchi illokutsiya savol boʻlsa, ikkilamchi illokutsiya iltimosdir. Koʻrinadiki,pragmatik maqsad va mazmunning ekplitsit, yani ochiq ifoda etilishida diqqat axborot almashinuvidan ushbu axborotni uzatish maqsadiga koʻchadi va kommunikatsiya maqsadi uzatilayotgan axborotning predmetiga aylanadi. Nutqiy harakat maqsadining ochiq bayoni turli koʻrinishdagi lisoniy birliklar vositasida bajariladi .[38]

Demak ,muloqotda reallashgan soʻroq gaplar turli pragmatik mazmunni ifodalaydi. Muloqot ishtirokchilarining kommunikativ intensiyasi soʻroq gaplarning mazmun mohiyatining kengayishiga sabab boʻladi.

References:

1. Primov A., Qodirova X. Tilshunoslikning dolzarb muammolari. – T.:Adabiyot uchqunlari, 2019. -107 b.
2. Omonturdiyev J., Omonturdiyev A. Soʻz qoʻllash sanʼati. –T.: Jayxun, 2000. - 61 b.
3. Safarov SH. Pragmalingvistika. Monografiya. –T.: 2008. -318 b.
4. Xujamkulova M. Kommunikativ tiplar pragmatik aspektida. Soʻz sanʼati, – T.:2022. – 5 b.
5. Navoiy, Alisher. “Xamsa”/ Qisqartirib nashrga tayyorlovchi A.Hojiahmedov. –T.: Yangi asr avlodi, 2016. -496 b.
6. Sayfullayeva R., Mengliyev B.,Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. –T.:Fan va texnologiya, 2009.
7. www.ziyonet.net-tilshunoslik